

MILLIYLIKNING ZAMONAVIY DUNYODA QAYTA TALQINI

Saidova Ziyoda Mirvosilovna

Kamoliddin Bexzod nomidagi MRDI, katta o'qituvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15394091>

Annotatsiya

Ushbu maqolada mustaqillik yillarida milliy qadriyatlar bilan bir qatorda milliy liboslarimizni targ'ib-tashviq qilish, milliylik va zamonaviylikning uyg'unligi masalasi o'rganilgan. Liboslarni yaratishda ipak, so'zana, atlas, adras kabi matolarni zamonaviy dizaynga moslab takomillashtirishga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Milliylik, zamonaviylik, liboslar, ipak, so'zana, atlas, adras, mato, uslub, urf, kiyofa, millat qiyofasi, inson ko'rki, milliy iftixor.

Аннотация

В данной статье исследуется вопрос о национальных ценностях и популяризации наших национальных костюмов, гармонии национализма и современности в годы независимости. При создании платьев уделяется внимание совершенствованию таких тканей, как шелк, сюзане, атлас, адрас в соответствии с современным дизайном.

Annotation

This article explores the issue of national values and the popularization of our national costumes, the harmony of nationalism and modernity in the years of independence. When creating dresses, attention is paid to the improvement of such fabrics as silk, suzani, satin, adras in accordance with modern design.

Key words: Nationality, modernity, clothes, silk, sozana, satin, address, fabric, style, tradition, dress, image of the nation, national pride.

Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarimiz bilan bir qatorda milliy liboslarimizni targ'ib-tashviq qilishda salmoqli tajribalar to'plandi. Ayni paytda, erishilgan yutuklarni mustahkamlab, jamiyatimizda milliylik va zamonaviylik uyg'un liboslarni yaratish, samaradorligini oshirish, xususan, bunda milliylik aks etgan ipak, so'zana, atlas, adras kabi matolarni zamonaviy dizaynga moslab differensiyalashtirish, ya'ni fasllar va joylardagi o'ziga xosliklarni uyg'unlashtirish, tizimda milliy liboslarni yangi dasturlarini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo qilmoqda. Biz mazkur mavzuni ayni shu bugungi kun talabi, ehtiyojidan kelib chiqib tanladik.

Libos, uslub, urf haqida so'z ketganida Amerikalik modeler, "business women" Donna Karanning "Mening ishim - qulaylik va hasham, foyda hamda istakni uyg'unlashtirish", - degan fikri yodimga tushadi [1,17-b]. Muhimi ham shu! Har bir millat va elat o'z milliy liboslari bilan ko'rkam



ko'rinadi va g'ururlanadi. Milliylik va zamonaviylik o'rtasidagi oltin oraliqni topish va uning asosida xalqimizga mos yangi libos andozalarini yaratish — asosiy maqsadimiz. Kiyinish uslubimiz nafaqat bizning dunyoqarashimiz va jamiyatdagi tutgan o'rnimiz, balki dunyo ko'z o'ngida o'zbek modasi degan mezonni o'rnatishimiz uchun ham alohida e'tibor talab etadi. Insonning yoshi, ijtimoiy maqomi va muloqot vaziyatiga mos bo'lgan libos unga go'zal qiyofa, ishchan kayfiyat berishi, shubhasiz. Bu jihatdan biz tanlagan mavzu bizni milliy tariximiz, ayollar kiyinish madaniyatining o'ziga xos qirralarini chuqur o'rganishni talab etadi.

Ko'pchilikdan shu savolni eshityapmiz: chindan ham, nega milliy liboslarimizni kundalik faoliyatimizda kiya olmaymiz? Balki ob-havoga mutanosib liboslarni tanlash kerakdir yoki doimiy kiyish uchun chidamli va qulay mato zarurdir? Milliy liboslarimizni faqat bayramlarda, to'y-shodiyonalarda, ko'rgazmalarda, kelin-kuyov bo'lganda kiyish odat bo'lgan. Kundalik faoliyatimizda esa milliy liboslarni deyarli kiymaymiz. Zamonaviy liboslar esa bugungi yoshlar talabiga javob berishi zarur. Aks holda, yangi brendlarga talab yuqori bo'lmaydi.

Xo'sh bizning milliy liboslarimiz qay darajada zamonga moslasha olyapti? Masalan, hindistonliklar o'z milliy liboslarini hamisha kiyib yuradilar. Deyarli barcha filmlarida zamonaviy liboslar bilan bir qatorda albatta milliy liboslarni ham ko'ramiz. Bu mamlakatda sariyning urfdan qolmaydi va hind xalqi uni egnidan tushirmaydi. Ularning liboslarida innovatsion yondashuvni deyarli sezmaysiz. Shunga qaramay, necha asrlardan buyon o'zgarmagan milliy liboslarini kiyib yurishlariga sabab ularning milliy qadriyatlari, liboslari, manfaatlariga bo'lgan sadoqatidir.

Darhaqiqat, ularning milliy liboslari Hindistondagi iqlim sharoitiga moslashganligi bilan ahamiyatlidir. Milliy liboslarga sadoqat ko'rsatishni hind xalqidan o'rganishimiz kerakdir! Ma'lumki, yer sharida tabiiy jarayonlarning tez-tez o'zgarib turishi liboslarga ehtiyoj tug'dirgan. Miloddan avvalgi V ming yilliklargacha bo'lgan davrda kiyimlar uchun hayvonlar terisi, daraxt po'stlog'i, o'simliklar tolasidan foydalanilgan [2]. U davrlarda kiyilgan kiyimlarning asosiy vazifasi kishi tanasini sovuq yoki issiqdan himoya qilish bo'lgan. Shu tarzda mato liboslarning himoya va ijtimoiy vazifasi kengayib, o'zgarib borgan. Dastavval, kiyimlarning asosiy vazifasi kishi tanasini sovuq yoki issiqdan himoya qilish bo'lgan bo'lsa, bugun uning ahamiyati odamlarni ko'rkam va chiroyli ko'rinishini ta'minlashdagina ko'rinmoqda.



Yashirmaylik, bugungi davrda ust-bosh, kiyinish uslublariga qarab muomala qiladigan, xarakter-xususiyatlarni baholaydigan, ijtimoiy kelib chiqishimizni taxmin qiladigan bo'ldik. Bunga sabab shiddat bilan rivojlanayotgan zamon talablarimi yoki odamlarning kiyimga bo'lgan munosabati o'zgarib borayotganimi? Balki dunyo dizaynerlarining har soatda ikkitadan yangi uslub o'ylab topayotgani sababdir? Hatto shunday ayollarimiz borki, bir tadbirga kiygan libosini ikkinchi tadbirga kiymaydi. Uslublar, usullar tez o'zgarmoqda. Bir-biri bilan raqobatlashayotgan brendlar kim o'zarga chiroyli, qulay, modellarni taqdim qilib to'xtamayapti. Bas, shunday ekan, yoshlarga ham qulay, ham arzon va urfdagi liboslarni kiyish har jihatdan ma'qul kelishi tabiiy hol.

Manbalardan ko'rinadiki, milliy libos deganda faqatgina adras va yoki atlasni, turli do'ppilarnigina tushunish xato, matosidan qat'i nazar, tikilish jihatidan ham o'zbek milliy libosi deb atalishga haqli liboslar juda ko'p ekan. Hatto milliy bosh kiyimlarimizdan biri bo'lgan do'ppining yuzdan ortiq turlari mavjud ekan [3].

Mavzuyimizning yana bir jihati kundalik faoliyatimizda ham kiya oladigan milliy liboslar yaratishni maqsad qildik! O'zligimizga xos milliy urfdagi liboslarga zarur me'yorlarni saqlagan holda zamonaviylik singdirilsa, haqiqiy nafosat va go'zallik namoyon bo'ladi. Milliy kiyimlarning zamonaviy ko'rinishi yoki bo'lmasa zamonaviy kiyimlarga milliy ruh berishda bir necha o'ziga xos uslublar mavjud bulib, bularga - milliy bichimlardan foydalanilgan holda, yoki milliy amaliy bezak turlaridan foydalangan holda ornamentli liboslar yaratish mumkin [4,111-b]. Kamoliddin Bexzod nomidagi MRDI talabaliri ham o'z ijodiy ishlarida bunday liboslar yaratish ustida katta izlanishlar qilib kelishmoqda.



Turli sohalarda mehnat qilayotgan ayollarga idorabop kiyim tikish ustida izlanishlarni ustozlarimiz bilan maslahatlashib olib bormoqdamiz. Liboslar dizaynini yaratishda ularning bejirim va xushbichim bo'lishiga e'tibor qaratdik. Bugungi kunda qizlar o'rtasida urfga aylanib borayotgan antiqa liboslar sabab, ba'zida milliyligimiz biroz unutilayotgandek tuyuladi. O'zligimizga xos liboslarga zarur me'yorlarni saqlagan holda zamonaviylik singdirilsa, haqiqiy nafosat va go'zallik namoyon bo'ladi.



Milliy libos – millat qiyofasi, inson ko'rki, milliy iftixor ifodasi. Milliy libosimizda xalqimizning ming asrlik o'tmishi, qadimiy urf-odat va an'analari, didi, estetik qarashlari shuningdek, o'ziga xos xususiyatlari mujassam. Milliy liboslarimizda qizlarimizga mos ibo va hayo aks etgan. Liboslarda zamonaviylik va milliylik uyg'unligi, taqinchoq va aksessuarlarning matolar rangiga mosligi kabi jihatlarga alohida e'tibor qaratilsa, ayniqsa, atlas, adras, beqasam singari matolardan tikilgan milliy liboslarning ko'rkam va xushbichimligi, o'ziga xosligi uni kiygan insonga manzur bo'ladi. Libos – inson ziynati. Davrlar, zamonlar yangilangani sari liboslar o'zgarib boradi. Bir-biridan rang-barang, uzun-kalta, tor-keng, dabdabali-ko'rimsiz, qimmat-arzon liboslar. Ko'pchilik uchun bu liboslarning yarashgani, o'ziga munosibliigi, yoshiga, qomatiga, kiyadigan davrasiga to'g'ri kelish-kelmasligi muhim emas. "Yangi chiqqan narsa, albatta, kiyilishi kerak, tamom. "Moda"ning talabi shu!" - singari qarashlar mavjud. So'nggi paytlarda yoshlarimizning kiyinish madaniyati haqida juda ko'p gapirilyapti. Ularning aksariyatida yoshlar sha'niga nisbatan keskin, e'tirozli



fikrlar bildirilmoqda. Ayrim yigit-qizlarning koʻr-koʻrona moda izidan quvishi, ularning kiyinishi milliy anʼanalardan uzoqlashayotgani, tor, kalta, ochiq kiyimlarga qiziqish borgan sari ortayotgani, bu odatlar oʻzbekchilikka zidligi tanqid ostiga olinmoqda. Albatta, bunday munosabatda jon bor. Haqiqatan ham oxirgi vaqtlarda yoshlarning kiyinishi mislsiz darajada oʻzgardi. Vaziyatning bunday tus olishi kishini oʻylantiradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda libos ustalari milliy liboslarimizni zamonaviylik bilan uygʻunlashtirib bera olsa, milliy madaniyatimizga libos yaratish sohasida ham yangi islohotlariga hissa qoʻshadilar. Umid qilamizki, bugunning yoshlari, zamon qahramonlariga mos, oʻzida milliylikni aks ettirgan zamonaviy liboslar koʻpayib, biz tanlagan mavzuyimiz tadqiqotimiz natijalari oʻz samarasini beradi!

Shuningdek, biz yaratayotgan milliy va zamonaviylik uygʻun liboslarimiz ajdodlar xotirasi, oʻtmish va kelajakni bogʻlab turuvchi koʻprik vazifasini bajaradi. Tarixdan shakllangan va hozirda oʻz rivojiga erishgan milliylik uygʻun liboslar katta tarbiyaviy ahamiyatga molik koʻplab milliylik uygʻun ishlarimiz kelajakda katta hajmda yoshlarimiz uchun milliy mahobatli, dunyo arenalariga javob bera oladigan chiqishlarga debocha boʻladi deb umid qilamiz. Yaratayotgan liboslarimizda ifodalangan tasvirlar, tarixiy davrlar, milliy kalorit, zamonaviylik, odamlarining hayoti va ijodi soʻzana, atlas, adras kabi mato, qadimiy, tarixiy bezak anʼanalarni qoʻllaganimiz hozirgi Yangi Oʻzbekiston, mustaqillik zamoni kishisini milliylik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan birga ularda cheksiz qiziqish uygʻotishi shubhasizdir.

Adabiyotlar roʻyxati:

1. Драмашко Т “Так говорили великие кутюрье. О моде, о жизни, а себе”.- Питер, 2014г.
2. А.А.Хакимов.Оʻzbekiston sanʼati tarixi.Toshkent. 2018y.
3. Sh.Shoyoqubov “Oʻzbekistonning bugungi miniatyura rangtasviri”: Albom.- T.: Sharq, 1994.-200b. Oʻzb, rus va ingliz tillarida.
4. Saidova Z.M. 2022. “Oʻzbek milliy liboslarining shakllanish tarixi va taraqqiyoti tamoyillari haqida”. Oʻzbekiston: til va madaniyat 3, 111-119b.
5. Ataxanova F.Z. 2022. “Oʻzbek anʼanaviy libosi va zamonaviy modaning oʻzaro integratsiyasi jarayonini tahlil etishdagi metodologik muammolar. Взгляд в прошлое, 4(6).
6. Abutalibovna, Y. S., & Muratovna, K. U. 2022. Formation of the national clothes of the inhabitants of Surkhandarya under the influence of local living conditions. Eurasian Journal of History, Geography and Economics, 5, 31-35.

